



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

IMPROVING PROFESSIONAL TRAINING THROUGH THE FORMATION OF VOCAL PERFORMANCE COMPETENCIES IN MUSIC EDUCATION STUDENTS

Murodov Mirshoxid Burxanovich

Associate Professor, Department of Music Education Samarkand State Pedagogical
Institute

Abstract. This research highlights the theoretical foundations of the vocal training process, the factors influencing the development of performance skills, and modern pedagogical approaches. The importance of interactive methods, individual approaches, and practical training sessions is substantiated. In addition, practical recommendations for the effective development of singing performance skills are provided.

Keywords: music education, singing performance, vocal mastery, pedagogical approach, performance competence, vocal abilities, interactive methods.

MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARIDA VOKAL IJROCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI KASBIY TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Murodov Mirshoxid Burxanovich

Samarqand davlat pedagogika instituti “Musiqqa ta’limi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: tadqiqotda vokal tayyorgarlik jarayonining nazariy asoslari, ijrochilik mahoratini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar yoritilgan bo‘lib, interfaol metodlar, individual yondashuv va amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati asoslab berilgan. Qo‘shiq ijrochiligi ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, qo‘shiq ijrochiligi, vokal mahorat, pedagogik yondashuv, ijrochilik kompetensiyasi, ovoz imkoniyatlari, interfaol metodlar.

Kirish. Musiqa ta’limi yo‘nalishida qo‘shiq ijrochiligi bo‘yicha sifatli tayyorgarlikni tashkil etish talabalarning vokal imkoniyatlarini to‘g‘ri shakllantirish, ularning ovoz diapazonini kengaytirish, nafas olish texnikasini rivojlantirish hamda badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Shu bilan birga, talabalarda sahnada erkin harakat qilish, tinglovchi bilan muloqot o‘rnatish va asarni mazmunan chuqur his etib ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda pedagogik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish, individual yondashuvni ta’minlash, talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantirish qo‘shiq ijrochiligi malakalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarning ustuvorligi, ustoz-shogird an’analari, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda refleksiv yondashuvni joriy etish bu borada muhim pedagogik omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, musiqa ta’limi jarayonida talabalarning individual psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish, ularning ovoz tembri, musiqiy eshitish qobiliyati va ijrochilik qiziqishlarini rivojlantirish ham alohida e’tibor talab etadi. Bu esa qo‘shiq ijrochiligi malakalarini shakllantirishni faqat texnik jarayon sifatida emas, balki murakkab pedagogik tizim sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash hamda milliy madaniyat va san’atni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va san’at ta’limi sifatini oshirish ustuvor vazifalar qatorida qayd etilgan [4; 12-b.]. Musiqa ta’limini rivojlantirishga qaratilgan PQ-112 va PQ-391-son qarorlarida esa musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan [3].

Zamonaviy pedagogika nazariyasiga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar, metodik fikrlash va kommunikativ madaniyat bilan belgilanadi. Musiqa ta’limida, ayniqsa vokal darslari, talabalarda qo‘shiq ijrochiligi malakalarini shakllantirish bilan birga, pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalari orasida qo‘shiq ijrochiligi malakalarini rivojlantirish jarayoni bir qator pedagogik xususiyatlarga ega. Avvalo, bu jarayon talabalarning vokal imkoniyatlari, musiqiy eshitish qobiliyati, ritm tuyg‘usi va sahna madaniyatini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli pedagogik yondashuv individual xususiyatlarni inobatga olgan holda, har bir talabaning ovoz diapazonini aniqlash, ohangni to‘g‘ri chiqarish va ifoda vositalarini o‘rgatish orqali tashkil etiladi.

Talabalar amaliy mashg‘ulotlarda o‘z ovoz imkoniyatlarini yaxshiroq namoyon eta boshladi, sahnada erkinlik va ijodiy ifoda darajasi oshdi. Shu bilan birga, mentorlik va video-feedback orqali ijrochilik xatolarini o‘z vaqtida aniqlash va tuzatish talabalarning o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. Natijada, pedagogik yondashuvlar nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki talabalarning ijodiy va psixologik tayyorgarligini ham oshirdi. Tadqiqot asosida aniqlanishicha, qo‘shiq ijrochiligi



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

malakalarini rivojlantirish talabning vokal imkoniyatlarini, sahna madaniyatini va musiqiy didini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, interfaol metodlar, individual yondashuv, mentorlik va video-feedback samarali pedagogik vositalar sifatida tanlanadi. Amaliy mashg‘ulotlarda refleksiya va tizimli yondashuv talabalarning ijodiy faoliyatini va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda talabning individual xususiyatlarini hisobga olish natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi. Shunday qilib, musiqa ta‘limi yo‘nalishi talabalari uchun qo‘shiq ijrochiligi malakalarini rivojlantirish murakkab va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar va individual yondashuv qo‘shiq ijrochiligi ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishda asosiy vositalardir. Amaliy mashg‘ulotlar davomida refleksiya va mentorlik tizimi talabalarning ijodiy va kasbiy rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi va ushbu pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish musiqa ta‘limi yo‘nalishida malakali va ijodkor mutaxassislar tayyorlash imkonini oshiradi.

Tadqiqot natijasida talabalarda qo‘shiq ijrochiligi malakalarini rivojlantirishning bir qator pedagogik xususiyatlari aniqlangan. Avvalo, vokal ijrochiligi ko‘nikmalarining kompleks tabiati o‘z ifodasini topadi. Talabalarda vokal malakalar bir nechta asosiy komponentlar orqali shakllanadi: vokal eshituv, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya va diksiya hamda musiqiy tafakkur va badiiy ifoda. Vokal eshituvning rivojlanishi ijrochining tovush sifatini nazorat qilish imkonini beradi, bu esa yuqori sifatli ijro natijalariga xizmat qiladi [5; 67-b.].

Shuningdek, tadqiqotda nafas olish texnikasining ustuvorligi ham muhimligi aniqlandi. To‘g‘ri nafas olish vokal ijrochiligining asosiy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. N.D. Andguladzening ta’kidlashicha, “kuylash san’ati – bu nafas olish



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

san’atidir” [6; 5-b.], bu esa talabalarning ovoz imkoniyatlarini samarali rivojlantirishda pedagogik e’tibor markazida bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, vokal mashg‘ulotlari talabalarda pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Mashg‘ulotlar davomida talabalarda metodik tushuntirish, kommunikativ kompetensiya, musiqiy-pedagogik tahlil va sahna madaniyati rivojlantiriladi, bu esa ularning nafaqat ijrochilik, balki kelajakdagi pedagogik faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, qo‘shiq ijrochiligi malakalarini rivojlantirish murakkab va tizimli pedagogik jarayon bo‘lib, talabalarning vokal imkoniyatlari, musiqiy didi, sahna madaniyati va ijodiy tafakkurini bir vaqtning o‘zida shakllantirishni talab qiladi. Vokal ijrochiligi ko‘nikmalari kompleks tabiiy bo‘lib, vokal eshituv, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya va diksiya, shuningdek, musiqiy tafakkur va badiiy ifoda komponentlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, vokal eshituvning rivojlanishi ijrochining tovush sifatini nazorat qilish imkonini beradi, to‘g‘ri nafas olish esa kuylash jarayonining asosiy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, talabalarning ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish pedagogik jarayonning markaziy elementi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Xalq so‘zi. – T., 2020. – 24 sentabr. – B.1-2. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-112-son Qarori. 2022-yil 2-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

- o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi
15.11.2024-yil, PQ-391-son Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-7221711>
4. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
<https://lex.uz/ru/docs/6600413>
5. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2008. 314 b.
6. Андгуладзе Н.Д. О творческой природе певческого дыхания / Н. Д.
Андгуладзе // Первый международный междисциплинарный конгресс
«ГОЛОС»: сб. трудов. – Москва, 2007. – С. 5-6